

“МАHBUB UL-QULUB” ASARINING TASAVVUFİY MOHIYATI VA
MAQOMLAR MUTANOSIBLIGI
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

Abdurahmonova Nilufar Laziz qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

magistranti

abdurahmonovnilufar33@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida tasavvufiy g‘oyalar va ularning badiiy ifodasi chuqur tahlil qilinadi. Xususan, Navoiy tomonidan ilgari surilgan maqomlar – ruhiy va ma’naviy taraqqiyot bosqichlari sifatida qaralib, ularning har biri asar mazmuni bilan qanday uyg‘unlashgani o‘rganilgan.

Kalit so’zlar. maqom, tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze’, zikr, rizo, ishq

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the mystical ideas and their artistic expression in Alisher Navoi’s work “Mahbub ul-qulub”. In particular, the maqoms put forward by Navoi are considered as stages of spiritual and moral development, and how each of them is combined with the content of the work is studied.

Keywords. status, repentance, asceticism, trust, contentment, patience, humility, remembrance, consent, love.

“Mahbub ul-qulub” – komil inson qanday bo‘lishi kerak, degan savolga javob bera oluvchi muhim tasavvifiy manbadir. Asarning ikkinchi qismi “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati” (Yaxshi fe’llar va yomon xislatlar to‘g‘risida) deb nomlanib, bu qismda yuqorida to‘xtalib o‘tilgan Alloh rizoligiga erishish bosqichlari deya ta’riflagan tasavvufiy maqomlar xususida so‘z boradi.

“Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismida insonning ma’naviy barkamollikka erishib, Haq bilan birlashishi uchun zarur bo‘lgan ijobiy fazilatlar mohiyati hamda odamzotni tubanlik botqog‘iga yetaklovchi yomon xislatlar kasofti haqida so‘z boradi. Shuningdek, komillika erishish masalalari tasavvufiy qarashlar nuqtayi nazaridan tahlil

qilinadi. Navoiy mazkur asarda bu axloqiy masalalarni 10 bobda bayon etib shu yo‘l bilan kamolotga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Mahbub ul-qulub”da maqom turlari boblar kabi 10 taga ajratiladi:



Navoiy har bir bobda insoniy fazilatlarning asl mohiyatini ochishga harakat qiladi va bu fikrlarni mashhur avliyolar, shayxlar, tarixiy shaxslar, afsonaviy qahramonlar bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyatlarni keltirish orqali dalillaydi.

So‘fiylarning maqomlar borasidagi tasniflarini tadqiq qilish asnosida Navoiy keltirgan maqomotlardagi o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi:

- Maqomlar tushunarli, sodda, ixcham tarzda izohlanadi;
- Ruhiy kamolot bosqichlari nasriy va nazmiy shaklda va hikoyatlar ko‘magida sharhlanadi;
- Tavoze’ va adab – tasavvufiy maqom sifatida baholanadi;
- Boshqa mutasavvuflardan farqli o‘laroq ishq maqomi bu asarda so‘nggi bosqich sifatida keltiriladi.

Asar ikkinchi qismining birinchi bobi “Tavba zikrida” deb nomlanib, Navoiy bu maqomot turini yoritishda nasriy matn, ruboiy, qit’a va hikoyatdan foydalanadi. Tavba

insonning o‘z xatolari, gunohlari uchun Allohga murojaat qilishi va pushaymon bo‘lishini bildiradi. Tavba isyondan itoatga, gunohdan yaxshilikka, xatodan haqiqatga qaytishdir. Haqiqiy tavba bu til bilan ifoda qilinmasa-da, qalbda paydo bo‘ladigan pushaymonlik tuyg‘usidir. “Mahbub ul-qulub”da esa tavbaga shunday ta’rif beriladi: “Tavba mujrim bandaning ko‘ngli ko‘zgusin isyon zangidan oritur va niyoz musqili bila ul ko‘zgu yuzin yoritur”¹. Demak, tavba gunohkor bandaning ko‘ngil ko‘zgusini gunoh zangidan tozalaydi va iltijo sayqali bilan u ko‘zguning yuzini yoritadi. Navoiy fikriga ko‘ra, bu maqomda banda Haq taolodan najot tilash vaqt yetganini anglab yetadi hamda nafsga tobelikni tark etadi. U o‘z holatidan xabardor bo‘lib, shum nafs ta’siridan xoli bo‘lganligi uchun o‘zining to‘g‘ri yo‘lini topadi. Xatolarini tan olib, gunohlarining kechirilishi uchun istig‘for aytadi va Haq yo‘liga kiradi. Bu holat tariqat ahlining birinchi boqich(maqom)i va maqsad vodiysining birinchi manzilidir.

“Zuhd zikrida” deb nomlangan ikkinchi bobda Navoiy Zuhd maqomining ahamiyatini tushuntirishda nasriy matn, mavzuga xos hikoyat va ikkita bayt keltirgan. Ushbu bobda Navoiy zuhdni shunday ta’riflaydi: “Zuhd dunyo orzularidin kechmakdur va nafs alarming mavti zahrin ichmakdur. Va nafsning barcha muddaolarin unutmoqdur. Va shariat jodasida mardona turmoqdur. Va tariqat vodiysig‘a purdardmandona qadam urmoqdur...”². Shuningdek, Hazrat Navoiy fikricha, barcha nomahramlar yuzidan ko‘zni asrash, barcha nomaqbul so‘zdan tilni tiyish, nafs istaklaridan ro‘za tutish, ko‘p mish-mish, g‘iybatlardan kar bo‘lish, yolg‘izlikni do‘s bilish va hamisha zikrda bo‘lish zuhd maqomining asosiy shartlaridir. Va bu maqomni egallagan solikning vujudi riyozat nuri bilan nafs chirkinliklaridan tozalanadi, ko‘nglini yoritgan sham yog‘dusi bandaning qalbini shodlantiradi.

Haqiqatdan ham, banda Zuhd maqomida Alloh irodasiga bo‘ysunish, uning roziligini egallahni istab, bu dunyoning foni, vaqtinchalik ekanligini anglaydi. Nafaqat dunyo mol-mulki, boyliklaridan, balki bu moddiyatga bo‘lgan qalban

¹ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. 50-b.

² Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. 53-b.

bog'liqlikdan ham voz kechadi. Hayotini toat-ibodatda o'tkazadi hamda Yaratganning irodasiga bo'y sunib, U yozgan taqdirga rozi bo'ladi.

Alisher Navoiy uchinchi – "Tavakkul zikrida" bobida "Tavakkul Haq yo'lida vosita asbobin raf qilmoqdur va vasila hijobin daf qilmoq"³, (ya'ni Tavakkul (Allohga dilbastalik va komil e'timod – ishonch) Haq rizosi uchun turli sabablarni yo'q qilish va bahona to'siqlarini daf etishdir) ta'rifini beradi. Shuningdek, bu qismda Navoiy o'qiguvchiga murojaat qilib, sening nasibangni boshqa bir kishi, uning nasibasini esa sen yeya olmaysan, rizq shunday narsaki, tilamasang ham yetkazadi, yemasang ham yediradi, deydi. Allohnning Rizqlantiruvchi ekanligini bilgan banda rizqi uchun g'am chekmaydi hamda Rizq bo'luvchi ekanligini bilgan nasibasi ozligida ham, ko'pligida ham hech so'z demaydi. Vahshiy yirtqich-u qushning rizqiga kafil bo'lib, qurt-qumursqalarni ham rizqlantirgan Parvardigor seni unutishi mumkinmi?, deya tavakkul sahrosiga qadam qo'yib maqsad vodiysiga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

To'rtinchchi bob, ya'ni keyingi tasavvuf maqomi – Qanoat bo'lib, bu istiloh arabcha – mammunlik, boriga shukur qilish; qanoatlilik, kamsuqumlik kabi ma'nolarni anglatadi. "Mahbub ul-qulub"da shoир: "Qanoat chashmayedurkim, suvi olmoq bila qurumas va maxzanedurkim, naqdi sepamoq bila o'ksumas va mazrayedurkim, tuxmi izzat va shavkat bar berur va shajaredurkim, shoxi istig'no va hurmat samar kelturur"⁴ deya ta'kidlaydi. Ya'nikim, qanoat bir chashmaki, olgan bilan suvi hech qurimaydi, bir xazinadirki, boyligi sochilgan bilan kamaymaydi, bir ekinzordirki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi va bir daraxtdirki, uning shoxida ehtiyojsizlik va hurmat mevasi bordir. Shuningdek, Navoiy fikricha, kim qanoatga odatlangan bo'lsa, shohlik va gadolik tashvishidan ozod bo'ladi. U shunday qo'rg'onki, unga kirgan odam nafs yomonligidan qutuladi, u bir tog'dirki, unga chiqqan kishi dushman va do'stga muhtojlikdan xalos bo'ladi. Qanoat bir maydirki, o'zi achchiq, ammo uning nash'asi shodlantiruvchi, bir yo'ldirki, o'zi qattiq, lekin manzili sevintiruvchidir. Shuningdek, qanoat – elni ikki balo – tamagirlilik va nokaslikdan qutqaradigan gavhardir. Negaki,

³ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. 55-b.

⁴ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. 57-b.

kimning qanoatdek ulug‘ xislati bo‘lsa, u el ichida izzat-u hurmatga ega bo‘ladi, aksincha, kim tama-yu hirs bilan do‘sit tutinsa, u yaxshi va yomon ichra xor-u nahs ko‘rinadi.

“Mahbub ul-qulub” asarining beshinchi bobи “Sabr zikridа” deb nomlangan. Tadqiq etilayotgan manbada esa bu maqomatga shunday ta’rif beriladi: “Sabr o‘zni chiqarmoqdur huzuzi nafsonidin va tana’ umoti jismonidin va nafsini habs qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo‘ymoqdur riyozot suubatida. Haq yo‘lida qotig‘ irikka tuzmakdur va yaxshi-yomondin har ne eshitgan va ko‘rganga tahammul ko‘rguzmakdur”⁵. Shuningdek, Navoiy go‘zal o‘xshatish va tashbehlar orqali bu tushunchaning ma’no-mohiyatini teranroq ifodalashga harakat qiladi. Masalan, sabr – suhbatи zerikarli, ammo oqibati maqsadga olib boruvchi do‘sit; umidi uzoq, biroq nihoyasida istakka yetkazuvchi ulfat; sekin yursa-da manzilga yetkazuvchi tulpor; og‘irqadam, lekin bekatga eltuvchi nor tuyadir. U ayriliq shomi kabi qorong‘u va uzun bo‘lsa ham oxirida visol tongiga yetkazadi, Haj yo‘li singari qiyin va uzoq bo‘lsa ham so‘ngida Ka’baga olib boradi.

“Tavozu’ va adab zikridа” deb nomlangan oltinchi bobda Navoiy boshqa mutasavvuflar tasnifida keltirilmagan bu ikki xislatga maqom sifatida qaraydi va uning ahamiyatini tushuntirishda nasriy matn, mavzuga xos hikoyat va ikkita bayt keltiradi. Asarda keltirilishicha, tavoze’ xalqni kishi muhabbatiga jalb qiladi va xalqni u bilan do‘shtashtiradi. U mutakabbir dushmanga muloyimlik sari yo‘l ko‘rsatadi, gerdaygan dushmanda insoniylik zavqini qo‘zg‘atadi. Qayta-qayta ko‘rsatilgan tavoze’ insofsiz dushmanni ham yomonlikdan qaytara oladi.

Yettinchi bob, ya’ni keyingi tasavvufiy maqom – Zikr bo‘lib, bu istiloh arabcha – yodga olish, eslash ma’nosini anglatadi. “Mahbub ul-qulub”da shoir: “Zikr ko‘ngul bila Haq yodi ishtig‘olidur va til bila dag‘i hamul takallum maqolidur. Ko‘ngul bila Haq yodi bila bo‘lmoqdur va aning g‘ayri xaylidin xoli bo‘lmoqdir”⁶ deya ta’kidlaydi. Ya’nikim, zikr – bu qalb bilan Allohni eslash, yod etishga mashg‘ul bo‘lish va til bilan

⁵ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. 60-b.

⁶ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. 65-b.

ham ana shu eslashni ifodalashdir. Qalban Haqqa bog'lanish va oshqa behuda fikrlardan o'zni xoli etishdir. Shuningdek, Navoiy fikricha, zikr daryosiga kirgan kishi maqsad gavharini istasa, ovoz chiqarmasligi kerak va bu maqsadga yo'l topgan sirdoshlik xohlasa, gapirmasligi lozim. Bundan xulosa chiqarishimiz mumkinki, Hazrat Navoiy zikrni faqat til bilan aytildigan so'z-u ibora sifatida emas, balki qalb bilan Yaratganni eslash, zikr qilish, Unga ixlos hamda ishq bilan doimiy yaqin bo'lishni anglatuvchi maqom sifatida baholaydi. Haqiqatdan ham, qalbdan his qilib aytilmagan, ko'r-ko'rona til vositasida ifodalangan zikr, albatta, befoydadir.

Haq rizoligiga erishishning sakkizinchi bosqichi sifatida Navoiy "Tavajjuh zikrida" bobini keltiradi. Navoiy fikricha, dunyo-yu oxiratda saodatga erishishni bildirsalar ham, siddiq va payg'ambarlar martabasini akslantirsalar ham bu maqomda solik bunga nazar tashlaydi, hatto, ko'ngliga yaqin yo'latmaydi. Agar yuziga o'qlar kelsa, ko'z yumishni unutadi, o'q bir ko'zini yo'q qilsa, yana birini tutib beradi. Tosh yog'sa, boshini yashirmaydi. Mabodo oldida dahshatli sher paydo bo'lsa, Allohgaga yuzlangan solik uchun u chumoliday gap. Unga qutugan fil duch kelsa, pashsha nima-yu u nima? Demak, tavajjuh Yaratgan uchun o'zni fido qilish hamdir.

"Hamida af'ol va zamima xisol xosiyati" qismining to'qqizinchi bobি – "Rizo zikrida"dir. Alisher Navoiy ham bu bosqich mohiyatini o'quvchiga kengroq tushuntirish, uqtirish maqsadida egallagan bilimlari doirasida turli tashbeh-u o'xshatishlar, ikkita nazmiy bayt va hikoyat keltiradi. Uning fikricha, rizo – o'z istak va xohishlaridan kechish hamda Haq subhanahu va taolo rizoligi qadahini sipqarmoqdir. Bu maqomda solik o'z rizosini fano o'tiga otib, Alloh rizosi bilan o'zini qayta o'nglaydi. Agar banda bog'ga qadam qo'yganda boshiga gul yog'ilса yoki oyog'iga tikan kirsa, bu bog'bonning rizo va ixtiyori bilan sodir bo'ladi. Do'sting rizoligi uchun ham jonini fido qiladi va agar u yana jon so'rasha, do'sti uchun bajo qiladi. U tiriiklikni faqat Alloh rizosi uchun tilaydi, agar o'limda Uning rizoligini topsa, jon berishni xohlaydi.

Navoiy hazratlari ham so'nggi tasavvuf bosqichi sifatida o'ninchи bobni "Ishq zikrida" deb nomlab, "sevgi, oshiqlik" ma'nolarini ifodalovchi mazkur istiloh –

maqom haqida adib o‘z asarida shunday fiklarni ifodalaydi: “Ishq axtaredur duraxshanda va bashariyat ko‘zi nur va ziyosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zeb va bahosi andin...”⁷. (Ishq – porloq yulduzdir va bashariyat ko‘zining nur va ziyosi undan, u – tovlanuvchi gavhardir, unsoniyat tojining zeb va bahosi undan). Shuningdek, ishq – har to‘lqini yuz aql-hush kemasini g‘arq qila oladigan keng dengizdir, har tig‘i ming zuhd-u taqvo egasining boshini uchira oladigan baland tog‘dir, olamni nafasi ila komiga oladigan qonxo‘r ajdarhodir, olam ahlini qirib tashlaydigan qahrli podshodir. Ishq oldida shoh-u gado ham, fosiq-u porso (pokdil) ham barobar. Oshiqning ko‘ngliga ma’shuq havasini soluvchi ham, bir jilvasi bilan uning jonini oluvchi ham shu ishq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Mahbub ul-qulub” asari insoniy fazilatlarni yuksaltirish, ma’naviy kamolot sari intilishga yo‘naltiruvchi bebaho manba bo‘lib, Navoiy o‘z davri va undan keyingi avlodlar uchun ham axloqiy-ma’naviy yo‘nalish beruvchi ulkan siymo ekanligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.
2. Jo‘zjoniy A.Sh. Tasavvuf va inson. – T.: “Adolat”, 2001.
3. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – T., 1996.
4. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchchi kitob. – T., 1999.
5. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намоёндалари. Илмий-оммабоп рисола. – Термиз, 2007
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I том. – Т., 1983.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том. – Т., 1983.

⁷ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018. 70-b.

8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. III том.
– Т.,1984.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. IV том.
– Т.,1985.
10. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб (нашрга тайёрловчи П. Шамсиев) //
Асарлар. 15 томлик. 13-том. – Тошкент: Faфур Fuлом номидаги бадиий адабиёт
нашриёти, 1966.